

YOZMA NUTQDA TINISH BELGILARNING AHAMIYATI

Homidjonova Zuhraxon Bahromjon qizi

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Toirova Guli Ibragimovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası

professori, filologiya fanlari doktori

tel. raqam: +998 90 299 34 17

e-mail: tugulijon@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7865885>

Annotatsiya: Ushbu maqolada punktuatsion belgilarning gapdagi ahamiyati va yozma nutqda qo'llanishi haqida so'z boradi. Yozma matnning mazmuni, ma'no turlari(ottenkalari), sintaktik qismlari(strukturasi), bu qismlar orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, nutq, yozma nutq, personaj, darak gap, sarlavha, grafik vosita, nutq madaniyati

Puntuatsiya so'zi lotincha punktium (punkt-nuqta, belgi, shakl) so'zidan olingan bo'lib, uch ma'noda ishlatiladi: tinish belgilari sistemasini o'rgatuvchi bo'lim, tinish belgilarning qo'llanish qoidalari va tinish belgilari ma'nolarida yuritiladi. Puntuatsiya tinish belgilarning qo'llanishilishi haqidagi yagona qonun-qoidalar yig'indisidir. Puntuatsiya tinish belgilarning miqdori, funksiyasi, qo'llanish sistemasi va tartibini o'rgatadi. Harflar yig'indisi alfavitni, to'g'ri yozuv qoidalari yig'indisi orfografiyani, to'g'ri talaffuz normalari orfoepiyani tashkil etganidek, tinish belgilar sistemasini punktuatsiyani vujudga keltiradi.

Nutq- tilning fikr ifodalash va almashinish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)tushuniladi.

Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarni ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Yozma matnning mazmuni, ma'no turlari(ottenkalari), sintaktik qismlari(strukturasi), bu qismlar orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining roli muhimdir. Yozma nutqda u yoki bu tinish belgining qo'llanishi ma'lum bir sistemaga asoslanadi. Bu sistema, avvalo o'zbek tili gap qurilishiga bog'liq holda belgilanadi. Chunki "butun til qurilishining gapdadir" (A.A.Shaxmatov).

Tinish belgilarning gap oxirida qo'llanishiga misol qilib nuqtani olish mumkin. Nuqta va uning qo'llanilishini ko'rib chiqsak. Darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Ma'lumki, darak gaplardan xabar ma'nosi ifodalanadi, voqea-hodisa ta'kidlanadi. Shuningdek, ulardan iltimos, nasixat, orzu-istak, gumon, qat'iylik kabi ma'no ottenkalari ham anglashiladi. Masalan: Hozir men Toshkentdaman. Yodgor o'z Agar alohida emotsionalikka ega bo'lmasa, buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi: Foyda chiqadigan tomonini ko'zlayvering(A.Qahhor). Erkalikni Begimqulga qiling(Odil Yoqubov).

Dramatik asarlarda har bir personajning nomidan so'ng nuqta qo'yiladi va uning gapi bosh harf bilan boshlanadi. Masalan:

Dadavoy. Ordenlarimni olib chiq!

Bahor. Shu topda ordenni nima qilasiz?

Dadavoy. Kerak... Medallarni ham olib chiq! (U.U.)

Ba'zan nuqta murakkab raqamlarni sinflarga bo'lib ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Bunda murakkab sonlarni o'qish osonlashadi, metodik izchillik, qulaylik vujudga keladi: 4.500.000 tonna "oq oltin" kabi.

Yana bir tinish belgilaridan biri bu ko'p nuqtadir. Sizlar bilan ko'p nuqtaning qo'llanishiniyam ko'rib chiqsak. Mazmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga ko'p nuqta qo'yiladi: To'yni kelasi yil qilsak qilarmiz... (A.Qahhor). Poyezdga bilet olib qo'ygan bo'lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa... (A.Qahhor).

Gapdagi turli uzilishlarni ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi: Hay-hay, ukam, shundoq baobro' odam sizni ko'rgani kelsa-yu, siz xursand bo'lish o'rniga...(A.A'zam)

Mazmuni aniq ochilmagan gaplardan keyin ko'p nuqta qo'yiladi va undan keyin shu mazmunni ochadigan gap keltiriladi: 1914-yil... Shu yildan o'zbek she'riyati osmonida "Cho'lpon" degan mitti yulduz charaqlay boshladi.(N.Karimov)

Matnda muayyan sabab bilan uzilib qolgan fikr bayonining davom ettirilganini ko'rsatish uchun gap boshiga ko'p nuqta qo'yiladi: ...Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldinga keladi.(O'.Hoshimov)

Sarlavha vazifasida qo'llangan gaplardan keyin mazmun taqozosiga muvofiq ko'p nuqta qo'yiladi: Bir yigit kuylar ekan... (Oybek. She'r sarlavhasi) Iztirob ekan-ku muhabbat... (X.Do'stmuhammad. Hikoyalar turkumining nomi.)

Xulosa qilib aytganda, tinish belgilarning gapdagi o'rne muhim hisoblanadi. Agar gaplarda tinish belgilarni tushirib qoldirsak yoki tinish belgilarni noo'rin qo'llasak gapdagi ma'no, mazmun buziladi. Shunday ekan punktuatsion belgilarni o'z o'rnida qo'llash joizdir. Hozirgi kunda punktuatsiyaning roli ortib, uning funksiyasi va qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Bu hodisa respublikamizda matbaachilik, matbuot va nashriyot ishlarining keng rivojlanishi, o'zbek yozuv madaniyatining taraqqiy etishi, kishilar savodxonligining oshishi va ularning o'z amaliy faoliyatlarida nutqning barcha formalaridan foydalana olishlari, adabiy til ta'sirining kengayishi, adabiy til funksional stillarining paydo bo'lishi va takomillashuvi- nutq madaniyatining keng ko'lamda ravnaq topishi va o'sishi bilan izohlanadi. Punktuatsiyaning tilshunoslikning boshqa sohalari: sintaksis, orfografiya, grafika bo'limlari, shuningdek, adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi fanlari bilan hamkorlikdagi taraqqiyoti davomida oydinlashib boradi.

References:

1. Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методикаси, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.
2. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.
3. Блок А. Собр. соч. в 8 т. Т. V. – М.–Л., 1962. С. 515.
4. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.
5. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.

6. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.- Ижевск, 2004 г. ва б.
7. Чўлпон шеърятда тиниш белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2020.- №4.- Б.26-33.
8. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Маҳмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2015.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик, иккинчи том. – Тошкент: «Фан», 1988.
10. Хайлова Е. Г. Пунктуация стихотворений И.Ф.Анненского. КД. – М.,2005 г.
11. Abdurakhmonova N., Alisher I. and Toirova G., "Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73-75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.
12. Toirova G.,Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.
13. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.